XURSHID DO‘STMUHAMMAD HIKOYALARIDA RUHIYAT TALQINI

Yangiboyeva Nilufar Madamin qizi
Osiyo xalqaro Universiteti
1-kurs magistranti

Qabul qilindi: 19.12.2025
Ko‘rib chiqildi: 20.12.2025
Tasdiqlandi: 22.12.2025

Tayanch so‘zlar:
ruhiyat, psixologik tahlil, ichki monolog, badiiy tafakkur, qahramon kechinmasi.

Ключевые слова:
духовный мир, психологический анализ, внутренний монолог, художественное мышление, переживания героя.

Keywords:
psyche, psychological analysis, inner monologue, artistic thinking, character’s emotional experience.

Annotatsiya. Mazkur tezisda zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos badiiy tafakkuri bilan ajralib turadigan yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalarida ruhiyat masalasi tahlil qilinadi. Yozuvchining qahramon ichki dunyosini ochishdagi psixologik yondashuvi, ruhiy kechinmalarni ramziy va badiiy vositalar orqali ifodalash mahorati ko‘rib chiqiladi. Hikoyalarda inson ruhining murakkab va ziddiyatli holatlari hayotiy lavhalar asosida ochib berilishi yoritiladi. Tadqiqot davomida adib hikoyalaridagi ruhiy tahlilning o‘zbek nasridagi ahamiyati asoslab beriladi.

Аннотация. В данном тезисе анализируется проблема духовного и психологического состояния личности в рассказах писателя Хуршида Дустмухаммада, который выделяется своеобразным художественным мышлением в современной узбекской литературе. Рассматривается психологический подход автора к раскрытию внутреннего мира героя, а также его мастерство в передаче душевных переживаний посредством символических и художественных средств. В рассказах на основе жизненных сцен раскрываются сложные и противоречивые состояния человеческой души. В ходе исследования обосновывается значимость психологического анализа в рассказах писателя для развития узбекской прозы.

Abstract. This thesis analyzes the issue of psychological and spiritual states in the short stories of Khurshid Dostmuhammad, a writer distinguished by his unique artistic

thinking in modern Uzbek literature. The study examines the author's psychological approach to revealing the inner world of his characters, as well as his skill in expressing emotional experiences through symbolic and artistic means. The stories depict the complex and contradictory states of the human psyche based on realistic life scenes. The research substantiates the significance of psychological analysis in the writer's short stories for the development of Uzbek prose.

Bugungi o‘zbek adabiyotida inson ruhiyatiga chuqur kirib borish, qahramonning tashqi harakatlaridan ko‘ra ichki kechinmalarini ochishga intilish kuchayib bormoqda. Bu jarayonda Xurshid Do‘stmuhammad ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi hikoyalarida voqea ko‘pincha ikkinchi planga surilib, inson qalbida kechayotgan sezimlar, ichki iztiroblar va sukut holatlari markazga chiqadi. Shu jihatdan adib hikoyalari kitobxonni faqat voqeani kuzatishga emas, balki qahramon bilan birga mulohaza yuritishga undaydi.

Xurshid Do‘stmuhammad milliy adabiy an’analarga tayanib, jahon adabiyoti tajribalarini ham ijodiy o‘zlashtirgan yozuvchi sifatida tanilgan. Uning hikoyalarida inson shaxsiyati, mas’uliyati va ichki erkinligi masalalari ruhiy tahlil orqali yoritiladi.

Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalarida ruhiyat masalasi ko‘pincha voqealardan ko‘ra inson qalbida yuz berayotgan ichki siljishlar orqali ochiladi. Yozuvchi qahramon ruhiy holatini bevosita izohlashdan qochib, ichki monolog, sukut va ramziy detallar yordamida psixologik tasvir yaratadi. Shu sababli adib hikoyalarida ruhiy kechinmalar matnning ichida, satrlar orasida yashab yotadi.

Bu jihat yozuvchining “Oq libos” hikoyasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Hikoyadagi Yunusxo‘ja obrazi tashqi tomondan qat’iyatli hokim sifatida ko‘rinsa-da, uning ichki dunyosida mas’uliyat va nafs o‘rtasidagi keskin ziddiyat kechadi. Omila xonimning nasihatlari va Piri Tarxonning ogohlantirishlari qahramon ruhiyatida iz qoldiradi. Yunusxo‘ja to‘g‘ri yo‘l borligini sezadi, biroq uni tanlashga jur’at eta olmaydi. Hikoya yakunida yuzaga keladigan kechikkan anglash lahzasi yozuvchi tomonidan baland ovozda emas, balki ramziy tasvirlar orqali beriladi.

Adibning boshqa hikoyalarida ham ruhiy tahlil shu yo‘sinda davom ettiriladi. Jumladan, “Qor odam” hikoyasida insonning ichki yolg‘izligi va jamiyatdan begonalashuvi ruhiy holat sifatida tasvirlanadi. Qahramon tashqi tomondan oddiy hayot kechirayotgandek ko‘rinsa-da, uning ichki dunyosida

sovuqlik va tushunilmaslik hissi hukmron bo‘ladi. Bu holat tabiat manzaralari orqali yanada kuchaytiriladi.

“Oqimga qarshi oqqan gul” hikoyasida esa inson ruhidagi ichki qarshilik va mustaqil fikr masalasi markazga chiqadi. Qahramon jamiyat oqimiga bo‘ysunmaslikka urinadi, biroq bu kurash tashqi harakatlarda emas, balki ichki kechinmalar va sukutda namoyon bo‘ladi. Yozuvchi ana shu ichki kurash orqali inson ruhining murakkabligini ochib beradi.

Umuman olganda, Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalarida ruhiyat tasviri tarixiy yoki zamonaviy voqealar bilan bog‘langan bo‘lsa-da, u doimo inson qalbiga xos umumiy holatlarni aks ettiradi. Yozuvchi ruhiy tahlil orqali shaxsiy fojiani ijtimoiy va ma’naviy muammo darajasiga ko‘taradi.

Xulosa

Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalarida ruhiyat masalasi o‘zbek nasrida kam uchraydigan teranlik va samimiyat bilan yoritilgan. Yozuvchi inson qalbini ochishda balandparvoz fikrlardan qochib, oddiy hayotiy holatlar orqali chuqur ma’no yaratadi. Uning qahramonlari kitobxon uchun begona emas, aksincha, inson ichki dunyosida yashayotgan kechinmalarni eslatadi. Shu jihatdan adib hikoyalari nafaqat badiiy asar, balki inson ruhiyatini anglashga xizmat qiluvchi muhim adabiy hodisa sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.Do‘stmuhammad. *Beozor qushning qarg‘ishi*. — Toshkent: Sharq, 2006.
2. Karimov B. *Adabiyotshunoslik metodologiyasi*. — Toshkent: Muharrir, 2011.
3. Rasulov A. *Tanqid, talqin, baholash*. — Toshkent: Fan, 2006.
4. Sattorova G. *90-yillar o‘zbek hikoyachiligi va milliy xarakter muammosi*. — Toshkent, 2002.